



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025

BARQAROR TARAQQIYOT POYDEVORI – MILLIY
QADRIYATLARIMIZDIR

Sultanov Fozil Xojiyevich
Turon FA akademigi.
Muzaffarov San’atbek Ikromjon o’g’li
O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti
Tel.(94) 924 01 15
E-pochta: sanatbekmuzaffarov@gmail.com

Annotatsiya: Maqola milliy tarbiyaning strategik yo‘nalishini keng ma’noda ma’naviy qadriyatlarimizni millatimizga yot bo‘lgan turli zararli ta’sirlardan himoya qilish, uni yoshlarimizni ongi, qalbi, dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirishni tashkil qilish muammolariga bag‘ishlangan bo‘lib, bu masalada buyuk jadidchi bobolarimiz va yurtimizga tanilgan zamondosh yozuvchilarimizning xikmatlari asosida yurtimizda volontyorlik harakatini rivojlantirishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: milliy ta’lim-tarbiya, strategik yo‘nalish, siyosiy - iqtisodiy transformatsiyalar, ma’naviy qadriyatlar, yoshlar, ommaviy madaniyat, jadidchilar, yozuvchilar, dunyoqarash, xikmatlar, volontyorlik.

Аннотация:Статья посвящена проблемам организации стратегического направления национального воспитания в широком смысле — защите наших духовных ценностей от различных вредных воздействий, чуждых нашему народу, а также превращению их в неотъемлемую часть сознания, сердца и мировоззрения нашей молодёжи. В работе рассмотрено развитие волонтёрского движения в нашей стране на основе мудрых наставлений великих джадидов и известных современников-писателей.

Ключевые слова: национальное образование и воспитание, стратегическое направление, политико-экономические трансформации,



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025

духовные ценности, молодёжь, массовая культура, джадиды, писатели, мировоззрение, мудрости, волонтерство.

Annotation: The article is devoted to the issues of organizing the strategic direction of national education, which broadly focuses on protecting our spiritual values from various harmful influences alien to our nation, and turning these values into an integral part of the consciousness, heart, and worldview of our youth. The work is also dedicated to the development of the volunteer movement in our country based on the wise teachings of the great Jadids and well-known contemporary writers.

Keywords: national education and upbringing, strategic direction, political and economic transformations, spiritual values, youth, mass culture, Jadids, writers, worldview, wisdom, volunteering.

Kirish qism. Ma'lumki, globallashuv jarayoni insonning xulq atvoriga, ongiga, ichki tuyg'ulariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida, jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Farzand tarbiyasida “ommaviy madaniyat” ko'rinishida kirib kelayotgan, ma'naviy qadriyatlarimiz, millatimizga yot bo'lgan turli zararli ta'sirlar, keyingi vaqtlarda yoshlar tarbiyasida turli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ularni bartaraf etishda esa davlat, jamiyat, ota-onalar va faol yoshlar birgalikda xarakat qilishlari kerak. Albatta bu madaniyatlar ichidan maqbul bo'lganlarinigina qabul qilamiz. Afsuski, ular orasida farzandlarimiz tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan yuqorida aytilgan illatlar xam kam emas, ana shu “salbiy illatlarni bartaraf qilish - siyosiy masala”, - deb xisoblanadi va u davlat, jamiyat barqarorligiga, tinchligiga ta'sir etadi.

Ijtimoiy-siyosiy taxlillarga ko'ra, keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar sonining keskin ortib borishi, ular orasida yoshlar asosiy katta qismini tashkil qilishi, muhim hodisadir. Ilmu-fan nuqtayi nazardan, raqamli



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025

texnologiyalar, jumladan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda o‘ziga xos madaniyat shakllanmasa, yoshlar tarbiyasida juda katta muammolarga duch kelamiz. Axborotlar oqimi chek chegarasiz, ular orasida, nadomatlar bo‘lsinkim, yoshlar ma’naviyatiga, tarbiyasiga, dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigani xam ko‘p. Foydalanuvchilar orasida, yoshlarimizning ko‘pligi bizni tashvishga soladi. Hozirgi zamonda ijtimoiy tarmoqda “Instagram, Tik-tok, Telegram”,- deb nom olgan ko‘ngilochar dasturlarni ommalashgani hech kimga sir emas. Bu dasturlar yordamida har xil harakatlar, o‘yinlar va chiqishlar amalga oshiriladi. Eng asosiysi, ushbu kanallar orqali “ommaviy madaniyat”ni yorqin namoyish etish, yoshlar ongini zaxarlash, axloqsizlikni targ‘ib eish, milliy qadriyatlarimizga nisbatan beparvolik hissini uyg‘otish, mumkin [1].

Asosiy qism. Insonning ongi va qalbini zaxarli g‘oyalar egallangach, u manqurt sifatida o‘zligidan ajraladi. O‘zligidan ayrilgan inson g‘ayriixtiyoriy ravishda har qanday tuban topshiriqning ham ijrochisiga aylanib boraveradi. Shu o‘rinda Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyovning fikriga e’tibor qaratish zarur: **“Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar “ommaviy madaniyat” tahdidi faqat chetdan – G‘arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o‘zimizdan, o‘z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo‘q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba’zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo‘shiq va raqslarni kuzatib, sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy”** [2].

"O‘z obunachilarini kuldiraman",- deb o‘zlarini har kuyga solayotgan, boshqalarga mazax bo‘lsada “layk” to‘plash uchun turli xil video va roliklar joylayotgan yosh ota-onalarni ko‘rganimizda, tarbiya borasidagi kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Ijtimoiy tarmoqlar va virtual olam kirib borayotgan dunyoda, oila a’zolarini yangi qadriyatlar bilan tanishtirib, o‘zga madaniyat va turmush tarzini



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

tashviq qilayotganligi, uning salbiy ta'siri natijasida yo'qotayotgan o'zligimiz, asta-sekinlik ila bo'hronlarga uchrayotgan, yoinki boshqasiga almashtirayotgan qadriyatlarimiz qarshisida, "ertaga ne deb javob beramiz?"- degan haqli savol tug'iladi.

Eng achinarlisi shuki, ota-onalarning shunday, ma'naviyatga zid, xazillarni yosh bolalar bilan birgalikda amalga oshirayotganidir. Axir farzand hamisha birinchi navbatda o'z ota-onasidan andoza oladi, uning yurish-turishidan, muomalasidan o'rnak oladi. Farzand kitob o'qib o'tirgan emas, balki kechayu-kunduz telefon bilan ovora bo'lib o'tirgan ota-onasini ko'rib, ulg'ayadi. Qarabsizki, farzand real va virtual hayotni bir-biridan ajrata olmay, hayotda o'z o'rnini yo'qotib qo'yadi. Virtual hayotni tahdid sifatida qaraladigan tomonlaridan biri- bu avlodlar orasidagi aloqalarning uzilib qolishidir. Bunday muxit kirib borgan xonadonlarda avlodlar yrtasidagi munosabatlar kun sayin kamayib bormoqda. Bunday xonadonlarda ota-onalar va bolalar soatlab yonma-yon ytirishadi, ammo internetdan uzilib, bir-birlariga bir og'iz so'z gapirishga fursat topisholmaydi. Bugungi kunda ota-ona va bolalar bir davrada ytirib, oilaviy va boshqa masalalarda shirin va ibratli suhbatlar quradigan xonadonlarni, kamdan-kam uchratamiz. Natijada, afsuski ota-ona va farzandlar yrtasidagi munosabatlar sovub bormoqda, ajrimlar xam ko'paymoqda. Bunga sabab qilib ijtimoiy tarmoqqa qaramlikni aytish mumkin. Nafaqat yosh avlod balki, katta yoshlilar ham bunday qaramlikka tushib qolishgani juda achinarli. Bejizga ulug' ma'rifatparvar jadidchi bobomiz Abdulla Avloniy o'z asarlarida ta'lim-tarbiya to'g'risida ham ko'p bor to'xtalib [3]:

“Tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”, - deya e'tirof etganlar. “Farzand tarbiyasi, bu - yaxshi niyat bilan barpo etilayotgan bino kabidir, agar uning poydevorini mustahkam qursangiz, turli tashqi ta'sirlarga bardoshli va ko'rkam bino bo'lib qoladi. Poydevori e'tibordan qolgan bino ming savlat to'kmasin, payti kelib aslini ko'rsatib qo'yadi”,-



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

degan edi taniqli yozuvchi Toxir Malik, ma’naviyat va tarbiya masalariga bag‘ishlangan "Odamiylik mulki" (Ahloq kitobi)da [4].

Ma’lumki, jadidchilik harakati XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan yirik ma’rifatparvarlar harakati bo‘lib, uning asosiy maqsadi xalqni uyg‘otish, jamiyatni isloh qilish, ilm-ma’rifatni keng yoyish va yosh avlodni zamon talablari asosida tarbiyalash edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi jadid bobolarimiz o‘z asarlari, maktablari, gazeta va jurnallari orqali xalqni ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, jamiyatga xizmat qilish ruhida tarbiyalagan.

“Haqshunoslik deb bir kishining qilgan yaxshiligini unutmaslikni aytilur. Butun olamdagi insonlar haqshunoslik va do‘stlik orqasida yasharlar. Yaxshilikdan do‘stlik, mehribonlik tug‘ar, ikki ko‘ngil orasida ulfat va muhabbat cho‘juqlari yugurishar, quvusharlar. Xayrixohlik deb nima ila bo‘lsa bo‘lsun bir-birimizga foyda yetkurmakni aytilur. Xayrixohlik bir birimizga qarshu ishla-tiladurgan bir vazifayi insoniyadur” [5].

Xayrixohlik — volontyorlikning axloqiy poydevoridir. Avloniyning ta’kidlashicha, xayrixohlik “bir-birimizga foyda yetkazish”, “egri yo‘ldan qaytarish”, “kuch yetganicha yordam qilish” demakdir. Avloniy aytgan “insonlar bir-birining yordami bilan yashaydi” g‘oyasi esa volontyorlikni ijtimoiy zarurat sifatida asoslaydi.

Haqshunoslik - ko‘ngillilikda ishonch va hamkorlikni shakllantiruvchi omil sifatida: hamkorlikning muhimligi, ijtimoiy ishonchning shakllanishi va o‘zaro rahmdillikning kuchayishi haqidagi fikr - volontyorlikning aynan maqsadlariga mosdir. Oliyhimmatlikda esa ijtimoiy qadriyatlar- volontyorlikning eng yuksak ma’naviy ko‘rinishi sifatida ilgari suriladi.



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025

Buni isboti sifatida, jadidchilar tomonidan tashkil etilgan barcha maktablarning bepul bo‘lgani hamda ularning asosan jadid ziyolilarining shaxsiy mablag‘lari hisobidan faoliyat yuritganini kuzatish mumkin.

Ismoil G‘aspirali - “Tarjimon” gazetasi orqali jamiyatni savodsizlikdan chiqarish, xalqni uyg‘otish uchun o‘z mablag‘i bilan xizmat qildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy - Samarqandda yangi usul maktablarini o‘z mablag‘i bilan tashkil etgan. Abdulla Avloniy - Toshkentda “Jamiyati xayriya” (xayriya jamiyati)ni tashkil etib, kambag‘al bolalar uchun bepul maktablar ochgan. Munavvarqori Abdurashidxonov -Toshkentda “Jamiyati Imdodiya”, “Nashriyot jamiyati” kabi xayriya va ma’rifiy tashkilotlar tuzgan hamda bepul maktablar ochgan, yetim bolalar uchun mablag‘ to‘plagan. Abdurauf Fitrat - Buxoro yoshlari va talabalariga homiylik qilib, ularni Istanbulga o‘qishga yuborilishida ko‘maklashgan. Cho‘lpon - Teatr truppalariiga homiylik qilgan, yoshlarni bepul o‘qitgan. Alixonto‘ra Sog‘uniy - xalq uchun bepul, beg‘araz, ijtimoiy foydali xizmatlar qilgan.

Demak, buyuk ishlarni amalga oshirgan jadidchilarning barchasi ezgulik va yaxshilik uchun xizmat qilgan va hozirda ham ezgulik uchun targ‘ibotchi sifatida ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, volontyorlik qilish har bir insonning qon-qoniga singib ketgan bir vaksina bo‘lishi kerakki, u orqali -insonlar jamiyatimiz uchun foydali ish qilmoqni - o‘z burchi kabi anglashi lozim.

Xulosa. Necha asrlar burun, alloma- bobokalonlarimiz "Sharq tafakkurini"ni butun dunyoga tarannum etganidek, minglab yillar davomida sayqallanib, bizgacha yetib kelgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizni yurtimiz yoshlariga singdirib, ziyoli, o‘qimishli, bilimdon qilib, yurtimizni barqaror rivojlanishiga o‘z hissamizni qo‘shishdek, yuksak mas’uliyatni biz faol volontyorlar zimmamizga olishimiz zarur.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Sultanova E.S., Sultonov F.X. “G‘oyaviy taxdid: adoqsiz kurashlar”. Toshkent, "Tafakkur" jurnali, 2021-yil, 3-soni, 114-115 b.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi Xalq so‘zi. 2017 yil 5-avgust.
3. Abdulla Avloniy (1878–1934). Turkiy Guliston yoxud axloq – www.ziyouz.uz, Chop etilgan 13.02.2017, Muallif, Ziyouz.uz
4. Toxir Malik “Odamiylik mulki” T., 2014, 432, 447 b.b.
5. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” 21-bet.